




«TASDIQLAYMAN»
Toshkent shahar statistika
boshqarmasi boshlig'i v.b.

L. Mirsoatov
“do” 2022- yil

**Toshkent shahar statistika boshqarmasida
korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida
bo'lib o'tgan yig'ilish**

BAYONI №4

2022- yil 20-may

Toshkent sh.

Yig'ilish raisi: L. Mirsoatov – boshqarma boshlig'i v.b.

Qatnashganlar: Sh.Norkulov – Boshqarma boshlig'ining birinchi
o'rindbosari v.b.
S.Annazarov – Boshqarma boshlig'i o'rindbosari v.b.
Boshqarma tarmoq bo'limlari va tuman statistika
bo'limlari xodimlari

KUN TARTIBI:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi
“O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini
takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi
PF-6013-sod farmoni hamda Toshkent shahar statistika boshqarmasi
tizimida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy
kompleks chora-tadbirlar rejasi yuzasidan tasdiqlangan chora- tadbirlar
rejalarida belgilangan vazifalar ijrosi to'g'risida.

(L.Mirsoatov, Sh.Norkulov, S.Annazarov, Sh.Shaagzamova,
Sh.Karimova, M.Usmonov, B.Shakarov, L.Mirsoatov)

Yig'ilishida, Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig'i v.b.
L.Mirsoatov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil
29-iyundagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish
tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi
PF-6013-sod farmoni hamda “Toshkent shahar statistika boshqarmasi
tizimida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy
kompleks chora-tadbirlar rejasi” ijrosini ta'minlash yuzasidan boshqarma
va tuman statistika bo'limlari xodimlariga qisqacha tushunchalar berib o'tdi.

Shuningdek, mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilayotganligiga to'xtalib o'tdi.

Davlat organlari zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etish bo'yicha ishlar amalga oshirilayotganligi ta'kidlandi.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini tubdan oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar korrupsiya holatlarining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etishning ta'sirchan tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Ushbu ishlarga fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat sektorning boshqa vakillarini ham keng jalb etish zarurati tug'ilmoqda.

Yig'ilishda, Davlat organlari zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etish bo'yicha ishlar amalga oshirilayotganligi qayd etildi.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini tubdan oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar korrupsiya holatlarining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etishning ta'sirchan tizimini yaratishni taqozo etmoqda.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi hisoblanishi qayd etildi.

Boshqarma va tuman statistika bo'limlarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida sifatli bajarilishi bo'yicha topshiriqlar berib o'tildi.

Jumladan, davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan huquqbazarlarga nisbatan ma'muriy ishlarni yuritishda amaldagi qonun hujjaligiga to'liq riosa etilishini ta'minlab, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 215-moddasi birinchi qismida nazardautilgan huquqbazarlikni birinchi marta sodir etgan tadbirkorlik sub'ektlarining mansabdar shaxslariga nisbatan ma'muriy amaliyotni qo'llashni O'zbekiston Respublikasining 2016- yil 29 -dekabrdagi O'RQ-418-son qonuni talablari asosida yuritilishini,

tashkiliy-huquqiy shakli hamda tasniflagichi bo'yicha (THSHT) notijorat tashkiloti sifatida ro'yhatga olingan yuridik shaxslarga nisbatan jarimalar qo'llanilishi hamda korxona va tashkilotlar bilan konsalting xizmatlari tuzilishiga e'tibor qaratishlari ta'kidlanib o'tildi.

Shu bilan birga, idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali dasturlarini amalga oshirish, ularning hisobdorligi va faoliyatining ochiqligi mexanizmlarini joriy etish, odob-axloq qoidalariga riosa etilishi va manfaatlar to'qnashuvining oldi olinishini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarish orqali tegishli sohada korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga imkon yaratayotgan sabablar va shart-sharoitlarni tag-tomiri bilan yo'qotish davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining birinchi darajadagi muhim vazifasi hisoblanashiga to'htalib o'tildi.

Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlari rahbarlari, xodimlari qonun hujjatlariga riosa etishi, o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg'arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga riosa etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbazarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbazarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shartligi yuzasidan ogohlantirildi.

Shuningdek, 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejası ijrosini ta'minlash yuzasidan boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari majburiyatları to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi. Ushbu chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarish yuzasidan boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlariga tegishli topshiriqlar berilganligi qayd etildi.

Shuningdek, boshqarmaning rasmiy veb-sayti www.toshstat.uz.da ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari miqdori yildan-yilga ortib borayotgani hamda boshqarmaning rasmiy veb-saytiga Toshkent shahri bo'yicha oylik, choraklik va yillik tahliliy statistik ochiq ma'lumotlar joylashtirib borilishi ta'kidlab o'tildi.

Bundan tashqari, joylarda tashkil qilinayotgan profilaktika ishlarini tashkil qilishda yuqoridaq chora-tadbirlar rejasida berilgan topshiriqlarni qat'iy amalga oshirishlari, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va Hukumat qarorlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini yangi tashkil topgan hamda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga tushuntirish ishlarini kuchaytirish, bunda joylardagi seminar uchrashuvlar va "Ochiq eshiklar kuni"da tadbirkorlik sub'ektlariga davlat statistika hisobotlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishlari lozimligi to'g'risida doimiy ravishda tushuntirishlar berib borishlari yuzasidan topshiriqlar berib o'tildi.

Shu bilan birga, boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari xodimlarining odob-axloq qoidalalariga amal qilishlari to'g'risida to'xtalib o'tildi.

Kun tartibidagi masalalar va ular to'g'risidagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish

QAROR QILADI:

1. Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig'i v.b. L.Mirsoatovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son farmoni hamda "Toshkent shahar statistika boshqarmasi tizimida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi" yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlari boshliqlariga:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son farmoni hamda Toshkent shahar statistika boshqarmasi va tuman statistika bo'limlarida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi bandlarida berilgan barcha topshiriqlar so'zsiz bajarilishi ta'minlansin hamda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar rahbariyatga kiritilsin;

- korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining oldini olish yuzasidan qabul qilingan qonun hujjatlari hamda Davlat statistika qo'mitasi tomonidan bu borada belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar ijrosini to'liq ta'minlash yuzasidan barcha zarur choralarini ko'rgan holda, mansab vakolatlarini suiste'mol qilib, korrupsiya holatlariga yo'l qo'ygan rahbar va xodimlarga nisbatan qat'iy jazo choralarini ko'riliishi to'g'risida ogohlantirilsin;

-davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan huquqbuzarlarga nisbatan ma'muriy ishlarni yuritishda amaldagi qonun hujjatlariga to'liq rioya etilishini ta'minlab, bu borada asosiy e'tiborni Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 215-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlarni birinchi marta sodir etgan tadbirkorlik sub'ektlarining mansabdor shaxslariga nisbatan ma'muriy amaliyotni qo'llashni O'zbekiston Respublikasining 2016- yil 29 -dekabrdagi O'RQ-418-son qonuni talablari asosida yuritilishiga qaratsinlar;

- tadbirkorlik sub'ektlariga ularning huquqlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini tushuntirish bo'yicha ommaviy axborot vositalaridan keng foydalangan holda muntazam

maqolalar chop etib borish, televideeniye va radio vositalari hamda rasmiy saytlar orqali chiqishlar tashkil etilnsin;

- boshqarma va tuman statistika bo'limlarida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "Odob-axloq qoidalari"ga amal qilgan holda o'z xizmat vazifalarini vijdonan va samarali bajarishlari yuzasidan mas'uliyatlarini yanada oshirsinlar.

3. Boshqarmaning bosh yuriskonsulti (M.Usmonov)ga:

Har chorak yakuni bo'yicha boshqarma va tuman statistika bo'limlari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan qo'llanilgan ma'muriy jarimalarni O'zbekiston Respublikasi MJtK talablari asosida to'g'ri qo'llanilganligi yuzasidan o'z tavsiyalari berib borilsin.

4. Ushbu seminar qarorlari ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Yig'ilish kotibi



Sh.Shaagzamova